

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INFORMATIKA
FANINING AHAMIYATI****Xudoyberdiyeva Laylo Sanjar qizi***Shahrisabz davlat pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi**3.21-guruh talabasi E-mail:laylosanjarovna@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim tizimida informatika fanining ahamiyatini va uning ta'lim jarayonidagi o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. Maqola davomida informatika fanining yosh avlodning kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli, xalqaro tajribalar va O'zbekistondagi amaliy loyihalar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada informatika fanini afzalliklari, axborot texnologiyalari va vositalari haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi.

Abstract: This article is dedicated to studying the significance of the subject of informatics in the primary education system and its role in the educational process. The article explores the role of informatics in developing the creative and critical thinking skills of the younger generation, analyzes international practices, and examines practical projects in Uzbekistan. Additionally, the article highlights the advantages of the subject of informatics and provides information about information technologies and tools.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению значения предмета информатики в системе начального образования и его роли в образовательном процессе. В статье рассматривается роль информатики в развитии креативных и критических навыков мышления у молодого поколения, анализируется международный опыт и практические проекты в Узбекистане. Кроме того, в статье освещаются преимущества предмета информатики, а также предоставляется информация о информационных технологиях и инструментах.

Kalit so'zlar: Informatikani o'qitishning afzalliklari, axborot kommunikatsion vositalar, raqamli texnologiyalar, xalqaro tajribalar, integratsiya.

Texnologiyalarning rivojlanishi XXI asrda inson hayotining barcha jabhalariga kirib kelmoqda. Bu jarayon jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim sohasiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish yosh avlodni zamonaviy dunyo talablariga moslashishga tayyorlash uchun muhimdir. O'zbekistonda informatika fanining boshlang'ich ta'limga joriy etilishi, yosh bolalarning texnologik savodxonligini rivojlantirishda dolzarb masala hisoblanadi. Bu bolalarni dastlabki bosqichdan texnologiyalar bilan tanishtirish, ularning raqamli savodxonligini oshirish va kelajak kasblariga tayyorlashga yo'naltirilgan. Ushbu jarayon faqat texnik ko'nikmalarni emas, balki bolalarning mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi.

Boshlang‘ich ta‘lim bolalarning asosiy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishidagi muhim davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda informatika fanining o‘qitilishi bir nechta muhim afzalliklarni beradi:

1. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish: Informatika fanining boshlang‘ich tamoyillarini o‘rgatish orqali bolalar axborot-kommunikatsiya vositalari bilan yaqindan tanishadilar va ularni hayotiy, ilmiy muammolarni hal qilishda qo‘llay oladi va algoritmik fikrlashni o‘rganadilar.

2. Ijodiylikni oshirish: Raqamli texnologiyalarni o‘rganish yordamida bolalar o‘z g‘oyalarini texnologik vositalar orqali amalga oshiradilar.

3. Raqamli savodxonlik: Bolalar kompyuter va axborot texnologiyalari bilan ishlashni o‘rganib, raqamli dunyoda xavfsiz ishlash tamoyillarini anglab yetadi.

4. Xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni ta‘minlash: Boshlang‘ich ta‘limdanoq IT sohalari bilan tanishib, butun dunyoda bo‘layotgan xalqaro baholash dasturlariga to‘laqonli barcha fanlardan, xususan IT savodxonligidan ham qatnashib yuqori natijalarga ega bo‘lishadi.

Dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida informatika fanining boshlang‘ich ta‘limga joriy etilishi ta‘lim sifati va bolalarning texnologiyaga qiziqishini oshirishda katta natijalar bermog‘da. Masalan, Finlyandiya informatika fani 6 yoshdan boshlab o‘qitiladi. Scratch va LEGO Mindstorms kabi interaktiv dasturlar yordamida bolalar dasturlashning asosiy tamoyillarini o‘rganadi. AQShda esa Code.org platformasi orqali minglab boshlang‘ich maktablarda "Hour of Code" dasturi amalga oshirilmoqda. Bu dastur o‘quvchilarga dasturlashning oddiy asoslarini qisqa vaqt ichida o‘zlashtirish imkonini beradi. So‘ngi yillarda xalqaro baholash dasturlarida eng yuqori o‘rinlarni egallab kelayotgan Singapur davlartida "Smart Nation" dasturi doirasida barcha maktablarda informatika fani majburiy qilib belgilangan. Bu bolalarning dasturlash, sun‘iy intellekt va robototexnika sohaslarida bilimlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Mazkur xalqaro tajribalardan foydalanib, O‘zbekiston ham informatika fanini rivojlantirish va uni boshqa fanlar bilan integratsiya qilish masalalari bo‘yicha rejalar ishlab chiqilmoqda. Raqamli texnologiyalar rivojlanoyatgan yillarda O‘zbekistondagi barcha ta‘lim sohaslarida ham axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanib, barcha fanlar bilan informatika fani integratsiya qilinmoqda. Mamlakatdagi barcha ta‘lim bosqichlarida, ya‘ni, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida, boshlang‘ich, yuqori va kasb-hunar maktab ta‘limida, Oliy va undan keyingi ta‘lim bosqichlarida keng miqyosda raqamli texnologiyalarni qo‘llamoqda. Xususan, O‘zbekistonda informatika fanini boshlang‘ich ta‘limga integratsiya qilish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, "Raqamli O‘zbekiston - 2030" strategiyasi ishlab chiqilib, maktablar texnik jihozlar bilan ta‘minlanmoqda, o‘quv dasturlari yangilanmoqda. Avvalo, o‘quvchilarga IT sohasida bilim, ko‘nikma, malakaga ega bo‘lishida yetuk mutaxassis o‘qituvchilar ham kerak. Shuning uchun mamlakatda o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar tashkil etilgan. Bunda o‘qituvchilar malakasini oshirish uchun xalqaro tajriba asosida seminarlar va kurslar tashkil etilmoqda. Shuningdek, ko‘plab maktablarda robototexnika va dasturlash asoslari tajriba tariqasida joriy etildi va ayrim maktablarda amalda qo‘llanmoqda.

O‘zbekistonda informatika fanini boshlang‘ich ta’limga joriy qilishda bir qator muammolarga ham duch kelmoqda. Bulardan, malakali o‘qituvchilarning yetishmasligi, maktablarning texnik ta’minoti past darajadali, kompyuter texnologiyalarning o‘zbek tilida emasligi kabilarni keltirish mumkin. Bu muammolarni hal qilishda bir qator ishlarni amalga oshirish lozim. Avvalo, o‘qituvchilarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish va ularning malakasini oshirish zarur. Qishloq joylaridagi maktablarni kompyuterlar va internet bilan ta’minlash, bolalarga o‘z ona tilida qulay interfeyslar va materiallar taqdim etish zarur. Ushbu muammolarni hal etish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish yosh avlodni zamonaviy dunyo talablariga mos bo‘lishda muhimdir. O‘zbekistonda informatika fanining boshlang‘ich ta’limga joriy etilishi, yosh bolalarning texnologik savodxonligini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Kelgusida informatika fanini rivojlantirishda mamlakatdagi o‘quv dasturlarini ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi raqamli texnologiya loyihalari bilan boyitish, har bir maktabni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta’minlash, pedagoglar uchun zamonaviy trening dasturlarini yaratish va ularni doimiy qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, informatika bo‘yicha milliy va xalqaro musobaqalar o‘tkazish orqali bolalarning qiziqishlarini oshirish katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ne‘matov O., Umirova M. Boshlang‘ich ta’lim jarayonini tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati // O‘zbekistonda ilmiy-innovatsion tadqiqotlar jurnali. – 2024. – T. 2. – Yo‘q. 4. – 77-81-betlar.
2. M.Kadirov "Axborot texnologiyalari" Toshkent-2018.
3. O.Ne'matov "TA'LIMDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" "Science Shine International scientific journal"-2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston–2030” dasturi to‘g‘risidagi qarori.
5. Turkmanova N., “Informatika fanini boshlang‘ich ta’limga integatsiya qilish masalalari”.